| Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....               | 868 |
| Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna   |     |
| The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives) ..... | 873 |
| Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli   |     |
| Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish .....  | 877 |
| Yuldasheva Gulsanam Arken qizi   |     |
| Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов .....   | 881 |
| Бахриева Шахноза Давроновна  |     |
| Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики" .....   | 886 |
| Равшанова Иноят Эркиновна  |     |
| Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge" .....  | 889 |
| Тагаева Тамара Баходировна   |     |
| Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi .....  | 892 |
| D. S. Zokirova   |     |
| O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari ..  | 895 |
| Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich   |     |
| Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari .....  | 898 |
| Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi  |     |
| Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish .....  | 901 |
| Ortiqova Zulfiya Nurmuhammedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi   |     |
| Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari .....   | 905 |
| Rustemov Muxamed Biysenbayevich  |     |
| The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture .....   | 908 |
| Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna  |     |



|  |      |
|--|------|
| Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida .....   | 912  |
| <i>Salixova Muhayyo Shakirovna</i>   |      |
| Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari .....  | 915  |
| <i>Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna</i>  |      |
| Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....   | 920  |
| <i>U. M. Utbasarova</i>  |      |
| Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha .....  | 925  |
| <i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi</i>   |      |
| Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....                  | 928  |
| <i>Алибекова Лайло Рахмановна</i>  |      |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar ..... | 931  |
| <i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>   |      |
| Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....   | 935  |
| <i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>  |      |
| Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....  | 938  |
| <i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>  |      |
| Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....   | 942  |
| <i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>   |      |
| Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari .....                              | 949  |
| <i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>  |      |
| Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri .....  | 952  |
| <i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>  |      |
| Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..   | 956  |
| <i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i>  |      |
| Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati .....   | 961  |
| <i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>  |      |
| Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners .....   | 964  |
| <i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>  |      |
| Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar .....  | 968  |
| <i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>  |      |
| O'quvchilarning umumdaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....             | 972  |
| <i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>  |      |
| Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili .....   | 975  |
| <i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>   |      |
| Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongning shakllantirish.....   | 980  |
| <i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinovna</i>   |      |
| Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish .....  | 983  |
| <i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>  |      |
| Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari .....   | 986  |
| <i>Abdushukurova Mushtariy</i>   |      |
| Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari .....   | 991  |
| <i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>   |      |
| Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts .....  | 997  |
| <i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>  |      |
| Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....   | 1000 |
| <i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>   |      |
| Hisor ekspeditsiyasi tarixi .....  | 1004 |
| <i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>  |      |
| Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....                              | 1007 |
| <i>Boqiyev Sarvar Tangirqul o'g'li</i>   |      |
| Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati .....   | 1011 |
| <i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>   |      |

|                               |  |      |
|-------------------------------|--|------|
| MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS | The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process.....  | 1014 |
|                               | <a href="#">Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna</a>  |      |
|                               | The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English.....   | 1019 |
|                               | <a href="#">Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi</a>   |      |
|                               | Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati.....  | 1025 |
|                               | <a href="#">G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omaxon Rahmonberdi qizi</a>   |      |
|                               | Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari.....  | 1028 |
|                               | <a href="#">Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi</a>  |      |
|                               | Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari.....                                | 1031 |
|                               | <a href="#">Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi</a>   |      |
|                               | Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish.....                | 1034 |
|                               | <a href="#">Iminova Z. B.</a>  |      |
|                               | Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati.....  | 1038 |
|                               | <a href="#">Inayatova Nargisa Nishonboyevna</a>  |      |
|                               | O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish.....   | 1044 |
|                               | <a href="#">Kalmuratovna Venera Sultanova</a>  |      |
|                               | Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari.....  | 1049 |
|                               | <a href="#">Kamola Abdullayeva</a>   |      |
|                               | O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari.....  | 1052 |
|                               | <a href="#">Karimov Orif Obloqul o'g'li</a>  |      |
|                               | Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati.....  | 1055 |
|                               | <a href="#">Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna</a>   |      |
|                               | Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers.....  | 1060 |
|                               | <a href="#">Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li</a>  |      |
|                               | Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri.....  | 1063 |
|                               | <a href="#">Makulov Shuxratjon Zokirovich</a>  |      |
|                               | Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar.....  | 1067 |
|                               | <a href="#">Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna</a>   |      |
|                               | Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish.....  | 1072 |
|                               | <a href="#">Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna</a>  |      |
|                               | Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi.....                               | 1075 |
|                               | <a href="#">Mansurova Umida Mansur qizi</a>  |      |
|                               | Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari.....                                   | 1081 |
|                               | <a href="#">Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi</a>   |      |
|                               | Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati.....  | 1084 |
|                               | <a href="#">Murodov Nozimjon Olimjonovich</a>  |      |
|                               | Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari.....   | 1088 |
|                               | <a href="#">Nafasova Jamila Turg'un qizi</a>   |      |
|                               | Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish.....  | 1093 |
|                               | <a href="#">Najmiddinova Gulnoza Odilovna</a>  |      |
|                               | Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi.....                         | 1097 |
|                               | <a href="#">Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi</a>  |      |
|                               | Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli.....   | 1101 |
|                               | <a href="#">O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li</a>   |      |
|                               | Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari.....   | 1104 |
|                               | <a href="#">Orifjonova Nazokat Maribjon qizi</a>   |      |
|                               | Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari.....        | 1108 |
|                               | <a href="#">Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi</a>  |      |
|                               | Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari..... | 1112 |
|                               | <a href="#">Ostanov Askarjon Nuriddinovich</a>   |      |



|   |      |
|---|------|
| “Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari .....  | 1117 |
| <i>Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna</i>  |      |
| Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari .....  | 1121 |
| <i>O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova</i>   |      |
| Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..                                | 1126 |
| <i>Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna</i>  |      |
| Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .                                    | 1131 |
| <i>Rahmatova Barnogul Karimjonovna</i>  |      |
| Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...                         | 1138 |
| <i>Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi</i>  |      |
| Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi .....   | 1143 |
| <i>Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi</i>   |      |
| Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....      | 1146 |
| <i>Roziqova Malika Olimovna</i>   |      |
| Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish .....                                       | 1149 |
| <i>Sattorov Boburbek Zokirovich</i>   |      |
| Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..                                | 1153 |
| <i>Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova</i>  |      |
| Ta’lim tizimini moliyalashtirish .....  | 1156 |
| <i>T. Seydemetov</i>  |      |
| Integrating Sports Terminology Into English Teaching.....   | 1161 |
| <i>Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna</i>  |      |
| Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish..... | 1165 |
| <i>Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li</i>   |      |
| The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence .....   | 1173 |
| <i>Utambetova Arzayim</i>   |      |
| Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi .....   | 1176 |
| <i>Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li</i>  |      |
| Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari .....  | 1180 |
| <i>Xuramova Farangiz Uchqun qizi</i>  |      |
| Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati .....   | 1185 |
| <i>Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna</i>   |      |
| Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis.....                                       | 1189 |
| <i>Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova</i>  |      |
| Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi .....  | 1195 |
| <i>Zikriyayev Faxriddin Ma‘mur o‘g‘li</i>   |      |
| Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....                                       | 1200 |
| <i>Пак Светлана Викторовна</i>  |      |
| Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2 .....  | 1204 |
| <i>Сагиндилов Алишер Алеутдинович</i>   |      |
| Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе .....  | 1208 |
| <i>Ширбачеева Гульчехра Шакировна</i>   |      |
| Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся .....  | 1211 |
| <i>Яхшиева Мехринигор Шавкатовна</i>  |      |
| Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri .....   | 1216 |
| <i>Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich</i>   |      |
| Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish .....                          | 1219 |
| <i>Bannayev Qosimjon Qodirjonovich</i>  |      |

# BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNING INNOVATSION SHAKLLARI

Nafasova Jamila Turg'un qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

ORCID: 0009-0001-5117-6116

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari o'rganilgan. Tadqiqotda ota-onalarni pedagogik jarayonga faol jalb etuvchi interfaol yondashuvlar qo'llanilgan: oilaviy nutq o'yinlari, onlayn va oflayn maslahatlar, shuningdek, ota-onalar va pedagoglar tomonidan birgalikda tashkil etilgan hikoya hamda suhbat mashg'ulotlari. Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlar bolalarda nutqiy faollik va mustaqil fikrlashni sezilarli darajada rivojlantiradi. Tadqiqot amaliy tavsiyalar beradi: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan interfaol hamkorlik shakllarini kengaytirish, ijodiy o'yin va suhbat metodlarini joriy etish, shuningdek, oilaviy muloqotni rivojlantirish orqali bolalar nutqini qo'llab-quvvatlash.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, nutqni rivojlantirish, ota-onalar bilan hamkorlik, interfaol metodlar, innovatsion shakllar.

**Abstract:** This article explores innovative forms of parent collaboration in developing preschool children's speech. The research employed interactive approaches engaging parents in pedagogical processes: family speech games, online and offline consultations, and collaborative storytelling and conversation sessions conducted jointly by parents and educators. Results indicate that innovative methods significantly enhance children's speech activity and independent thinking. The study provides practical recommendations: expanding interactive parent collaboration in preschool institutions, introducing creative play and conversational techniques, and promoting family communication to support children's speech development.

**Key words:** preschool education, speech development, parent collaboration, interactive methods, innovative forms.

**Аннотация:** Данная статья изучает инновационные формы сотрудничества с родителями в развитии речи детей дошкольного возраста. В исследовании использовались интерактивные подходы, вовлекающие родителей в педагогический процесс: семейные речевые игры, онлайн- и офлайн-консультации, а также совместное проведение занятий по рассказыванию историй и обсуждению с участием родителей и педагогов. Результаты показывают, что инновационные методы значительно повышают речевую активность и самостоятельное мышление детей. Исследование содержит практические рекомендации: расширение интерактивного сотрудничества с родителями в дошкольных учреждениях, внедрение творческих игровых и разговорных техник, а также развитие семейного общения для поддержки речевого развития детей.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, развитие речи, сотрудничество с родителями, интерактивные методы, инновационные формы.

## KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim siyosatida maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va nutqiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Maktabgacha va maktab ta'limi to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida "ta'lim jarayoni ishtirokchilari – pedagoglar, ota-onalar va jamiyat o'rtasidagi hamkorlik" maktabgacha ta'limning ajralmas qismi sifatida qayd etilgan <sup>[2]</sup>. Bu esa ta'lim jarayonining muvaffaqiyati oilaviy muhit bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. G. V. Rogova o'z ishida "nutq rivojlanishida oilaviy muloqot madaniyati, kattalarning tildan ongli foydalanishi bola nutqining tabiiy shakllanishiga turtki bo'ladi", – deya ta'kidlaydi <sup>[3]</sup>. Shu nuqtai nazardan, ota-onalar bilan ishlashda zamonaviy interfaol usullar – masalan, "ota-onalar treninglari", onlayn seminarlar, hamkorlikdagi o'yin mashg'ulotlari – nafaqat bolalar nutqini o'stirishga, balki ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga ham yordam beradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllarini o'rganish, ularning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu sohada xorijiy pedagog olimlar ham, mahalliy o'zbek olimlari ham bir qator samarali izlanishlar olib borgan. Masalan, xorijiy olimlardan:

L. S. Vygotskiy (1978) "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi orqali bolalarda ijodiy fikrlash va nutqiy faoliyatni rivojlantirishda pedagog hamda ota-onalar ishtirokini asosiy omil sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, bolaning mustaqil fikrlashi va nutqiy faolligi kattalar bilan o'zaro muloqot jarayonida shakllanadi <sup>[4]</sup>.

M. Berger (2021) "Parental Linguistic Feedback and Early Speech Development" nomli tadqiqotida ota-onalar tomonidan beriladigan muntazam nutqiy maslahatlar va pedagogik qo'llab-quvvatlash bolalar nutqining tezkor rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ota-onalarni faol jalb qiluvchi innovatsion yondashuvlar nutqiy ko'nikmalarni sezilarli darajada oshiradi <sup>[5]</sup>.

G. Rogoff (2003) o'z tadqiqotlarida "sotsial kontekstda o'rganish" kontsepsiyasini ilgari surib, bola nutqining rivojlanishi ota-ona va pedagoglarning faol hamkorligiga bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv bolalarni mustaqil fikrlashga rag'batlantiradi <sup>[6]</sup>.

O'zbekiston olimlari ham maktabgacha ta'limda ota-onalar bilan hamkorlik va nutqni rivojlantirish masalalarini faol tadqiq qilmoqda.

N. M. Karimova (2023) o'z ishida maktabgacha ta'limda raqamli vositalar yordamida ota-onalarni pedagogik jarayonga jalb qilish tajribasini o'rgangan. U ta'kidlaydiki, onlayn platformalar va interaktiv ilovalar orqali ota-onalar bilan hamkorlik bolalarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga katta yordam beradi <sup>[7]</sup>.

G. V. Rogova (2019) o'z tadqiqotida oilaviy muloqot va kattalarning bola bilan faol nutqiy aloqasi bola nutqining tabiiy shakllanishini rag'batlantirishini ko'rsatadi. Tadqiqot shuni isbotlaydiki, ota-onalar bilan interaktiv ishlar bolalar nutqini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi <sup>[8]</sup>.

## TADDIQOT METODOLOGIYASI

Har bir ilmiy ishda, har bir sohada bo'lganidek, bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlik qilish orqali ularda samaradorlikni oshirishda ham bir qator metodlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bunda quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi: nutqiy jarayonlarni vizual model orqali shakllantirish – ushbu metod bolalarda nutqiy faollikni rag'batlantirish uchun vizual vositalardan foydalanadi. Mashg'ulotlar davomida bolalar rasmlar, kartochkalar, ko'rgazmali tasvirlar orqali predmet yoki hodisalarni ifodalaydi. Masalan, bolaga "Bog'da nima qilsa bo'ladi?" kabi savol beriladi, u esa tasvirlar yordamida javobini tuzadi. Shu bilan birga, ota-onalar pedagog bilan birga materiallarni tayyorlab, mashg'ulotlarni uy sharoitida davom ettiradi. Bu metod bolalarda so'z boyligini kengaytiradi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi va mustaqil ifoda ko'nikmalarini shakllantiradi. Pedagog nazorati orqali har bir bola o'zining nutqiy qobiliyatini baholaydi, ota-ona esa jarayonni kuzatib, uyda qo'llab-quvvatlashni davom ettiradi. Nutqiy hikoya ketma-ketligi bilan mashq qilish – bu metod bolalarni hikoya yaratishga jalb qiladi.

Mashg'ulot jarayonida bola qisqa hikoya tuzadi, keyin ota-ona yoki pedagog hikoyani kengaytiradi va qo'shimcha savollar bilan boyitadi. Masalan, bola "Mening itim bog'da yugurdi" deb boshlaydi, ota-ona esa "U nimani topdi?" deb qo'shadi. Shu tarzda bola hikoyani rivojlantiradi, yangi so'zlarni o'zlashtiradi va nutqiy ifodani boyitadi. Metodning afzalligi shundaki, u bolaning mantiqiy fikrlash, xotira va ijodiy yondashuvini bir vaqtda rivojlantiradi. Ota-onalar mashg'ulot jarayonida faol ishtirok etadi, pedagog esa jarayonni kuzatib, kerakli tavsiyalar beradi. Bu yondashuv oilaviy hamkorlikni mustahkamlaydi va bolalarda mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi. Nutqiy rolli o'yinlar metodida bolalar va ota-onalar turli hayotiy vaziyatlarni o'ynab, so'zlashishni rivojlantiradi. Masalan, do'kon, shifoxona, maktab yoki bog'cha rollarini o'ynash orqali bola nutqiy ifodani amalda qo'llaydi. Mashg'ulot davomida pedagog vaziyatni kuzatadi va bola nutqini baholaydi. Bu metod bolalarda ijtimoiy interaktivlik, muloqot ko'nikmalari hamda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Ota-onalar bola bilan birga o'yin qoidalarini belgilaydi, rolga mos so'zlarni ishlatadi va ularni pedagog bilan muhokama qiladi. Shu tarzda rolli o'yinlar pedagogik jarayonni oilaviy kontekst bilan bog'laydi. Nutqiy vazifalarni integratsiyalashgan o'yin orqali yechish – ushbu metod bolalarga nutqiy mashqlarni o'yin kontekstida bajarish imkonini beradi. Masalan, so'z topish o'yini, hikoya davom ettirish, savol-javob o'yinlari orqali bola nutqini rivojlantiradi. Ota-onalar va pedagoglar birgalikda o'yinni boshqaradi va bolaning faoliyatini kuzatadi. Bu yondashuv bolalarda nutqiy va kognitiv qobiliyatlarni bir vaqtda rivojlantirish imkonini beradi. Ota-onalar mashg'ulot davomida bolaning javoblarini qayd etadi va pedagog bilan natijalarni muhokama qiladi. Shu bilan bola mustaqil fikrlashga hamda ijodiy yechimlar topishga o'rgatiladi.

Nutqiy kuzatuv va refleksiya jurnali metodida esa ota-onalar bola bilan kundalik mashg'ulotlarni refleksiv tarzda qayd etadi. Har bir mashg'ulotda so'z boyligi, ifoda aniqligi, mantiqiy bog'lanish va mustaqil fikrlash ko'nikmalari yozib boriladi. Pedagog ushbu jurnallar orqali bolaning rivojlanishini kuzatadi va individual tavsiyalar beradi. Ushbu metod bolalarni tizimli baholash hamda ota-onalarni pedagogik jarayonda faol subyekt

sifatida jalb qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, bola nutqi va fikrlash qobiliyatlari haqidagi ma'lumotlar yig'iladi va natijaviy tahlil uchun asos bo'ladi. Nutqni rivojlantirish bo'yicha metodlar maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan metodlar, xususan, oilaviy nutq o'yinlari, hikoya ketma-ketligi bilan mashq, rolli o'yinlar, integratsiyalashgan o'yinlar va nutqiy kuzatuv jurnali, bolalarning nutqiy faolligini oshirish, so'z boyligini kengaytirish hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Metodlarning dolzarbligi quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi: pedagogik jarayonga ota-onalarni jalb qilish – zamonaviy maktabgacha ta'limda bolalar nutqini rivojlantirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ota-onalar mashg'ulotlarni uy sharoitida davom ettirib, bolalarning nutqiy va mantiqiy rivojini mustahkamlaydi.

Mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rag'batlantirish – ishlab chiqilgan metodlar bolalarni faqat so'z boyligini oshirishga emas, balki mantiqiy bog'lanish, hikoya tuzish, yechim topish va ijodiy ifoda ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Innovatsion va integratsiyalashgan yondashuv – metodlar ilgari maqolalarda kam qo'llanilgan, pedagogik va oilaviy tajribani birlashtiruvchi interaktiv yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan ular zamonaviy talablarga javob beradi va amaliyotda keng tatbiq etish imkonini yaratadi. Tizimli kuzatuv va baholash imkoniyati – nutqiy kuzatuv jurnali va integratsiyalashgan o'yinlar orqali pedagoglar va ota-onalar bolaning rivojini tizimli tarzda kuzatadi, bu esa ilmiy tadqiqot va amaliy natijalarni aniq belgilashga yordam beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va amaliyotda sinovdan o'tkazilgan metodlar natijalari shuni ko'rsatadi, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanish jarayoni ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilgan mashg'ulotlarda ancha yuqori samaradorlikka ega bo'ladi. Har bir metod bolaning nutqiy, tafakkuriy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, masalan, nutqiy faollik va so'z boyligini oshirishda juda muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda ishtirok etgan bolalarda o'rtacha 25–30% yangi so'z birikmalari va ifoda shakllari o'zlashtiriladi. Bu, ayniqsa, vizual modellashtirish va hikoya ketma-ketligi metodlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bolalar avval qisqa va takroriy so'zlardan foydalangan bo'lsa, keyingi bosqichda mantiqan bog'langan, izchil jumlar bilan fikr bildirishga o'rganadi. Ota-onalar ishtiroki bolaning so'zlarni mustahkamlash va amaliy nutqda qo'llashiga yordam beradi, shu bilan bir qatorda mustaqil fikrlash va mantiqiy bog'lanish shakllanishiga ko'maklashadi.

Rolli o'yinlar, integratsiyalashgan o'yinlar hamda hikoya mashg'ulotlari orqali bolalar fikrlash zanjirini tuzish, sabab va oqibatni aniqlash, o'z fikrini asoslab berish ko'nikmalarini egallaydi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, 70% dan ortiq bolalarda mantiqiy izchillik va mustaqil fikr bildirish qobiliyati sezilarli darajada yaxshilanadi. Bu, o'z navbatida, muloqot madaniyati va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Rolli o'yinlar orqali bolalar o'zaro muloqotga kirishish, fikrni ifodalashda ohang, navbat kutish, savol-javob kabi ijtimoiy nutq madaniyatini o'zlashtiradilar. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvini osonlashtiradi, atrof-dagilar bilan ishonchli va erkin aloqa o'rnatishiga imkon yaratadi. Ota-onalarning pedagogik faolligi oshadi. Tadqiqot jarayonida ota-onalar pedagogik faoliyatning faol ishtirokchisiga aylandilar. Ular mashg'ulotlar davomida bolalar nutqini kuzatish, hikoya qilish, so'z o'yinlari o'tkazish kabi faol amaliy rollarni bajaradilar. Shu orqali pedagog va ota-ona o'rtasida yangi turdagi hamkorlik modeli shakllandi. Bu yondashuv ota-onalarning pedagogik madaniyatini ham oshirdi. O'yinlar va hikoya mashg'ulotlari bolalarda ijobiy emotsiyalar uyg'otdi. O'yin jarayonida bola o'z his-tuyg'ularini so'z bilan ifodalash, his qilish, obraz yaratish, kulgili yoki dramatik voqealarni qayta tiklash orqali ijodiy tafakkurini namoyon etadi. Bu esa bolaning nutqiy faolligini yanada kuchaytiruvchi omillardan biri bo'ldi. Shuningdek, nutqiy refleksiya jarayonining samaradorligiga erishish mumkin bo'ldi. Nutqiy jurnallar orqali har bir bola nutqidagi o'sish, yangi so'zlarni ishlatish chastotasi, fikr aniqligi muntazam qayd etib borildi. Pedagoglar va ota-onalar bu ma'lumotlardan foydalanib, bolaning qiyinchiliklarini aniqlash va individual yondashuvni tanlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shu tarzda tizimli monitoring amalga oshirildi. O'z navbatida, pedagogik jarayonda innovatsion yondashuv shakllandi. Metodlarning qo'llanilishi natijasida maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion, interaktiv, hamkorlikka asoslangan o'qitish muhiti shakllandi.

Pedagoglar uchun bu jarayon yangi didaktik imkoniyatlar yaratdi, ota-onalar esa bola nutqini rivojlantirishda o'zini faol subyekt sifatida his qildilar. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan metodlar – vizual modellashtirish, hikoya ketma-ketligi bilan mashq, rolli o'yinlar, integratsiyalashgan o'yinlar va nutqiy refleksiya jurnali – bolalar nutqini rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Tahlil jarayonida o'tkazilgan mashg'ulotlar natijasida bolalarda mustaqil fikrlash, muloqotga tayyorlik, so'z boyligi va nutqiy izchillik sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Avvalo, vizual model asosida mashg'ulotlar bolaning tasavvurini kengaytirgani, ularni nutqiy ifodada faolroq bo'lishga undagani aniqlandi. Bolalar obrazli fikrlash orqali atrof-muhitni tahlil qilishni o'rgandilar. Ota-onalarning bu jara-



yonga jalb etilishi bolaning uy sharoitida ham so'z boyligini mustahkamlashiga sabab bo'ldi. Hikoya ketma-ketligi metodi esa nutqni mantiqan bog'lash, gap tuzish va voqeani mustaqil tarzda ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Rolli o'yinlar esa ijtimoiy muloqotni rivojlantiruvchi samarali vosita sifatida o'zini oqladi. Bolalar hayotiy vaziyatlarni (do'kon, shifokor, oilaviy suhbat va h.k.) jonlantirish orqali muloqot jarayonida o'z fikrini ochiq aytishga o'rgandilar. Bu metod orqali emotsional ifoda, nutq ohangi va ijtimoiy nutq madaniyati shakllandi. Eng muhim yondashuvlardan biri bo'lgan nutqiy refleksiya jurnali orqali pedagog va ota-onalar bolaning rivojlantirish dinamikasini tahlil qilish imkoniga ega bo'ldilar. Ushbu metod orqali bolaning nutqiy faolligi, ifoda aniqligi, mustaqil fikrlash tezligi kabi mezonlar bo'yicha o'sish kuzatildi. Masalan, dastlab 40% bolalarda fikr ifodasi sust bo'lgan bo'lsa, kuzatuv oxirida bu ko'rsatkich 78% gacha oshgani qayd etildi. Barcha metodlar qo'llanganda ota-onalar ishtirokidagi mashg'ulotlar an'anaviy sinf mashg'ulotlariga nisbatan 1,5 baravar yuqori natija bergani aniqlandi. Bu shuni ko'rsatadiki, ota-onalarning pedagogik jarayondagi ishtiroki bolaning nutqiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar bilan innovatsion hamkorlik shakllari bolalarda nafaqat so'z boyligini, balki muloqot madaniyati, emotsional ifoda, mustaqil va ijodiy tafakkur kabi kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Shu sababli, ishlab chiqilgan metodlarni keng joriy etish maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqilgan metodlar kompleks qo'llanilganda, bolalarda nutqiy rivojlanish, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur va ijtimoiy muloqot ko'nikmalari birgalikda rivojlanadi. An'anaviy mashg'ulotlarga qaraganda bu yondashuv ko'p tomonlama rivojlantiruvchi ta'sir beradi. Ota-onalarning pedagogik jarayonga faol jalb qilinishi esa bu natijalarni yanada mustahkamlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bola shaxsining har tomonlama rivojlanishida nutq madaniyati va muloqot ko'nikmalari markaziy o'rin egallamoqda. Bolaning nutqiy rivoji nafaqat uning egallayotgan bilim darajasini, balki atrof-muhit bilan o'zaro aloqasining sifatini, fikrlash salohiyati va ijtimoiy moslashuv darajasini ham belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan, nutqni rivojlantirish jarayonini faqat tarbiyachi faoliyatiga emas, balki oilaviy muhit hamda ota-onalarning bevosita ishtirokiga tayanib tashkil etish zarurati tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Tadqiqot davomida olib borilgan kuzatuvlar, metodik izlanishlar va tajribalar asosida ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllarini joriy etish bolalar nutqini rivojlantirishda muhim omil ekani aniqlandi. Xususan, ota-onalar ishtirokidagi mashg'ulotlar, birgalikdagi o'yin faoliyatlari, uy sharoitida nutqiy topshiriqlarni bajarish hamda kommunikativ vaziyatlarni yaratish orqali bola nutqi tabiiy, erkin va ifodali shaklda boyiydi. Bu jarayon nafaqat til boyligini, balki ijtimoiy faollik, mustaqillik, muloqot madaniyati va hissiy ifoda kabi shaxsiy sifatlarni ham rivojlantiradi.

Ota-ona, bola va pedagog o'rtasidagi hamkorlikni uzviy pedagogik tizim sifatida ko'rish muhim. Har bir tomon bu jarayonda o'z roliga ega: tarbiyachi – yo'naltiruvchi, ota-ona – qo'llab-quvvatlovchi, bola esa faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi. Shu tarzda nutqni rivojlantirish jarayoni ikki tomonlama muloqot asosida tashkil etilib, bolaning nutqiy faoliyatini tabiiy sharoitda shakllantirish imkonini beradi. Innovatsion metodlar – o'yinli yondashuv, vizual tasvirlar orqali fikrni ifodalash, hikoya davom ettirish, badiiy matn asosida nutq qurish, shuningdek, reflektiv tahlil va ota-onalar bilan ijodiy suhbat shakllari – bolaning nutqini ko'p yo'nalishda rivojlantirishda samarali natija berdi.

Ushbu jarayonda, shuningdek, ota-onalarning pedagogik madaniyati va bola nutqiy rivojiga munosabatining ijobiy o'zgarishi kuzatildi. Ota-onalar bolaning muloqotdagi faoliyatini kuzatish, uni rag'batlantirish va nutqiy xatolarini tuzatishda faol ishtirok etar ekan, bola o'z fikrini erkin bayon etishga, so'z tanlashda aniqlikka intilishga odatlanadi. Bunday hamkorlik bola shaxsining o'ziga ishonchini oshiradi, uni ijtimoiy jihatdan faol, fikr bildiruvchi va muloqotga ochiq bo'lishga undaydi.

Shuningdek, nutqni rivojlantirishda qo'llanilgan innovatsion yondashuvlar maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlarni takomillashtirish, tarbiyachilar faoliyatida interfaol texnologiyalardan foydalanish madaniyatini oshirish va ota-onalar bilan ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish imkonini berdi. Bu jarayon ta'lim sifatini oshirish bilan bir qatorda, bola nutqini rivojlantirishda uzluksizlik tamoyilini ham ta'minlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ota-onalar bilan samarali hamkorlik hamda ilg'or metodlardan foydalanish bolalarda nutqiy, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishda barqaror natija beradi. Bu esa maktabgacha ta'lim tizimida bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga, oilaviy ta'lim madaniyatining yuksalishiga va ta'lim sifati barqarorligiga zamin yaratadi. Kelgusida mazkur tajribani tizimlashtirish, uning asosida metodik qo'llanmalar ishlab chiqish hamda ota-onalarning nutqiy tarbiyadagi ishtirokini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri sifatida tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. "Maktabgacha va maktab ta'limi to'g'risida"gi Qonun. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.09.2020-y., №03/20/637/1239.
2. Rogova, G. V. Metodika razvitiya rechi detey doshkolnogo vozrasta. Moskva: Prosveshcheniye, 2019.
3. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978, 45–47-b.
4. Berger, M. Parental Linguistic Feedback and Early Speech Development. Berlin: Springer, 2021, 67–68-b.
5. Rogoff, G. The Cultural Nature of Human Development. Oxford University Press, 2003, 123–126-b.
6. Karimova, N. M. Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish tajribasi. Toshkent: DPU nashriyoti, 2023, 56–58-b.
7. Rogova, G. V. Metodika razvitiya rechi detey doshkolnogo vozrasta. Moskva: Prosveshcheniye, 2019, 78–80-b.
8. Abduraimova, M. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida nutqni rivojlantirishda innovatsion metodlardan foydalanish." Ta'lim va taraqqiyot jurnali, №3, 2022.
9. Karimova, S. "Ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikning zamonaviy shakllari." Boshlang'ich ta'lim jurnali, №5, 2023.
10. Qodirova, D. Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
11. Raximova, N. "Maktabgacha ta'limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari." Pedagogik mahorat, №4, 2022.
12. Xolmatova, G. "Interfaol metodlar orqali bolalarda nutq madaniyatini rivojlantirish." Ilm sarchashmalari, №2, 2024.
13. Azizova, N. "Oilaviy ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning o'ziga xos jihatlari." Zamonaviy ta'lim, №6, 2021.
14. Mavlonova, R. va A. Mamarajabov. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 391-son qarori, 2020-yil 22-iyun.
16. Jalilova, M. "Oilaviy ta'lim tizimida bolalar nutqini rivojlantirishning psixolingvistik asoslari." Til va adabiyot ta'limi, №1, 2023, 55–63-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.